O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

**“TASDIQLAYMAN”**
**Urganch davlat universiteti rektori**
**________________ B.Abdullayev**
**____________________2024-yil**

**Ro‘yxatga olindi № ____________**
**2024-yil ____________**

# TILLAR O’QITISH METODIKASI VA TA’LIM TEXNOLOGIYALARI FAN DASTURI

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 100 000 - Ta`lim |
| **Ta’lim sohasi:** | 110 000 - Ta`lim |
| **Ta’lim yo‘nalishi:** | 60111800 - Xorijiy til va adabiyoti (tillar bo`yicha) |

**URGANCH – 2024**

**O'quv ishlari bo'yicha prorektor:** **S.U.Xodjaniyazov**

**Akademik faoliyat va registrator departamenti boshlig'i:** **G'.R. Matlatipov**

**Xorijiy filologiya fakulteti dekani:** **Z.O. Jumaniyozov**

**Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi mudiri:** **R. X. Abidova**

**Tuzuvchi:** **Atadjanova S.**



| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **Fan/malakaviy kodi**<br>TO`MTTB3482 | | **O'quv yili**<br>2024-2025 | **Semestr**<br>7-8 | **ECTS – Kreditlar**<br>7-semestr – 5<br>8-semestr – 5 | |
| **Fan/modul turi**<br>Majburiy | | **Ta'lim tili**<br>Ingliz | | **Haftadagi dars soatlari**<br>5-semestr – 4<br>6-semestr – 4 | |
| | **Fanning nomi** | **Ma`ruza** | **Seminar** | **Mustaqil ta'lim (soat)** | **Jami yuklama (soat)** |
| **1.** | Tillar o`qitish Metodikasi va ta'lim texnologiyalari | 7- semestr- 30<br>8- semestr -30 | 7-semestr – 30<br>8-semestr – 30 | 7-semestr – 90<br>8- semestr – 90 | 300 |

## I. Fanning mazmuni

"Tillar o`qitish metodikasi" fani ixtisoslik fani sanalib, u talabalarni ham nazariy, ham amaliy jihatdan oliy va o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchisini kasbiy faoliyatga tayyorlaydi. Fanning dolzarbligi o'qituvchi faoliyati uchun birlamchi hisoblangan pedagogik ko'nikma va mahoratning shakllanish zaruriyati bilan belgilanadi.

O'quv fanining asosiy mazmuni "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasining kadrlar tayyorlash Milliy dasturi, davlat ta'lim standarti talablari, 2021 yil 19.05 dagi №5117 Prezident qarorida belgilangan xorijiy tillarni o`rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to`g1risida "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" Davlat dasturiga muvofiq, xorijiy tillarni o'rgatishni ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida rivojlantirish, ushbu yo'nalishda ta'lim sifatini tubdan oshirish, sohaga malakali pedagoglarni jalb etish hamda aholining xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish maqsadida qarorida belgilangan ustuvor vazifalar, hamda 2022 yil, 19.01 yildagi 34-sonli PQ ga asosan, mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatishni ommalashtirishni yangi bosqichga olib chiqish va sohani rivojlantirish uchun tizimli ishlarni tashkil etish, ulg'ayib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, buning uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u zamonaviy talablar bo'lg'usi pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini

muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

**II. O‘quv fanining maqsadi va vazifalari**

Fanni o‘qitishdan maqsad – talabani chet til o‘qituvchisi kasbiy faoliyatiga nazariy hamda amaliy jihatdan tayyorlashdan iborat. Zamonaviy metodikaning asosiy muammolari bilan tanishtirish “Chet tili o‘qitish metodikasi” fanining asosiy vazifasi sanaladi. Ushbu fan talabalarnio‘zlari ishlayotgan ta’lim muassasalarida olib boriladigan darslarda duch kelishi mumkin bo‘lgan aniq vazifalarni mohirona hal etishga yo‘naltiradi.
Bunda asosiy e’tibor talabalarning amaliy ko‘nikmalarini ishlab chiqish, asosiy kasbiy malakasining shakllanishi; darsning ongli, tarbiyaviy va ta’limiy maqsadlarinishakllantirish; mavzu asosida o‘quv materialini rejalashtirish; darsning rejasi va konspektini tuzish; savol va topshiriqlar tuzish, so‘rovlar o‘tkazish hamda bilimni daliliy baholash; o‘quvchilarning mustaqil ishini tashkil etish; hamkasblari va o‘z darslarini tahlil qilishga qaratiladi.

**III. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)**

**1-mavzu. Chet tili o`qitish metodikasi fanining maqsad mazmuni va mohiyati.** Tillarni egallashda Umumevropa kompetensiyalari. Chet til o‘quv predmeti sifatida. CHet tillarni o‘rgatish maqsadlari, mazmuni va tamoyillari.

**2-mavzu. Chet tillarni o‘qitish metodikasining qisqacha tarixi va uning rivojlanish bosqichlari.** Jahon miqyosida chet tillarni o‘qitish. O‘zbekistonda chet tillarni o‘qitish. CHet til o‘qitish metodikasi fanining tarixi.

**3-mavzu. Chet tili o`qitishning prinsiplari va boshqa fanlar bilan aloqasi.** Chet til o‘qitishning pedagogik, didaktik, psixologik, lingvistik va metodik tamoyillari.

**4-mavzu. O`qitish jarayoni.**
O`qituvchi rollari. Taqdimot turlari. Chet tili o`rgatishda darsga tayyorgarlik. O`qituvchi ko`nikmalari. Material tanlash va tadbiq qilish. Til materialini baholash va taqqoslash. Til o`rgatish muammolari.

**5- mavzu. Chet tili o`rganish jarayoni.**
Til o`rganish uslublari (Kinesetik/ auditori/visual/tactile). Chet tili o`rganishga qo`yilgan talablar va til o`rganish muammolari.




4. Tessa Woodward. Planning lessons and courses. Cambridge University Press. 2001.
5. Brian Tomlinson. Materials development in language teaching. Cambridge University Press. 2011.
6. Penny Ur. A course in language teaching. Cambridge University Press. 1992

**Qo`shimcha adabiyotlar**

1. Platform (online & outline) Macmillan English Campus Platform (online & outline) Macmillan Education UK, 2015
2. 2. Oxeden C., Latham. (2008) New English Files. Oxford University Press. Upper intermediate
3. Mickey Rogers, Joanne Taylore-Knowles, Steve Taylore-Knowles. Open Mind. Upper Intermediate. Macmillan Education, 2015
4. Virginia Evans, Jenny Dooley (1997). Enterprise 4 Coursebook (Intermedite) Express Publishing

**Axborot manbalari**
**Ingliz tili**

1. www.teachingenglish.org.uk
2. www.elgazette.com
3. www.learnenglish.org.uk
4. www.educationuk.org
5. www.bbc.co.uk\worldservice\learningenglish
6. www.channel4.com\learning
7. www.better-english.com\exerciselist.htm
8. www.englishclub.com\index.htm
9. https://www.youtube.com/@ibratfarzandlari


7. **Urganch davlat universiteti tomonidan 2024-yil 29-iyun 11-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan**

8. **Fan/modul uchun mas’ullar:**

1. Atadjanova S.R – “Ingliz tili va adabiyoti” kafedrasi katta o`qituvchisi

9. **Taqrizchilar:**

J.Ermetova–UrDU “Xorijiy til va adabiyoti ” kafedrasi dotsenti
H. Raximova- UrDU “Xorijiy til va adabiyoti ” kafedrasi katta o’qituvchisi

25. Umumta'lim maktabi o'quvchilarining diskurs kompetensiyasini rivojlantirishda ta'lim texnologiyalarining ahamiyati. (A2 darajadagi o'quvchilar misolida)
26. Umumta'lim maktabi o'quvchilarining ijtimoiy –madaniy kompetensiyasini rivojlantirishda ta'lim texnologiyalarining ahamiyati. (A1 darajadagi o'quvchilar misolida)
27. Umumta'lim maktabi o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda ta'lim texnologiyalarining ahamiyati. (A1 darajadagi o'quvchilar misolida)
28. Umumta'lim maktabi o'quvchilarining dialogik nutqini rivojlantirishda Case Study texnologiyalarining ahamiyati. (A1 darajadagi o'quvchilar misolida)
29. Umumta'lim maktabi o'quvchilarining dialogik nutqini rivojlantirishda Case texnologiyalarining ahamiyati. (A1 darajadagi o'quvchilar misolida
30. O'qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda ommaviy ochiq onlayn kurslarining ahamiyati.

**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**

- Loyiha ishlari;
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- Muammoli o'qitish
- interfaol keys-stadilar;
- mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar;
- Vazifali o'qitish

**VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**

Yuqoridagi qo`yilgan talablardan kelib chiqqan xolda, talaba fanga oid barcha nazariy, amaliy va mustaqil ish mavzularini chuqur o`rgangan xolda o`z bilim va ko`nikma malakalarini rivojlantirishi, chet tili o`qitish metodikasining asosiy nazariy va amaliy bilimlarini o`rganib, berilgan talablarga ko`ra portfolio, yozma mashqlar, taqdimotlar va loyiha ishlarini nazoratlar, uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni plagiatga yo'l qo'ymasdan bajarish hamda o'z vaqtida topshirish.bajarish orqali kredit to`playdilar.

**Asosiy adabiyotlar**


1. Common European Framework of Reference for languages: Learning, Teaching, Assessment. The Council of Europe - Strasbourg, 2005.
2. Rogers and Richards. Approaches and methods in Language Teaching. Cambridge University Press.
3. Harmer Jeremy. The Practice of English language Teaching. Cambridge, 2007.




**6- mavzu. Sinfni boshqarish va sinf muloqoti.**
Sinfni boshqarish principlari va asosiy qoidalari. Savol- javoblar texologiyasi. Sinf boshqarish uchun mashqlar va texnologiyalar.guruhlash va o`rganuvchilarning sinfda joylashuvini shakllantirish. Individuallashtirish va guruhlash

**7-mavzu. Chet tillarni o'qitish texnologiyalari.**
Texnologiya tushunchasi. Modulli texnologiya yondashuvlar. O'yin texnologiyalari. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi. Axborot kommunikatsion texnologiyalariga asoslangan ta'lim. Hamkorlikdagi ta'lim. Chet til ta'limining guruhli texnologiyalari.

**8-mavzu.Chet tillarni o'qitish metodlari.** Metod tushunchasi. Chet til ta'limining an'anaviy va zamonaviy metodlari. An`anaviy va zamonaviy metodlarning qo`llash uslublari va amalga tadbiq qilish.

**9- mavzu. Chet tillarni o'qitishda motivatsiyaning va xotiraning roli.**
Motivatsiya, va o`rganuvchining til o`rganishga bo`lgan qiziqishlarini rivojlantirish. Motivatsiya turlari va ularni yahshilash. Til o`rganishda o`quvchilarning xotirasini yahshilash uchun shart sharoitlar yaratish/ mashqlar/ o`yinlar va tadbirlar.

**10-mavzu. Uzluksiz ta'lim tizimida chet tillarni o'qitish vositalari va mashqlar tizimi**
Ta'lim vositalari tasnifi. Mashq - chet tillarni o'qitishning yagona birligi. O'UM - umumta'lim muassasalarida chet til ta'limi sifatini oshirishning samarali vositasi sifatida. Zamonaviy darslik: darslik tuzilishi va tamoyillari.

**11-mavzu. Zamonaviy chet til o'quv jarayonini tashkil etish texnologiyalari, metod va usullari**
Zamonaviy metodlar. (Crossover method/ Integrative in nature/ collaborative method/hip-hop method/resourse based method/cooperative teaching/ flipped learning/blended learing/video assisted learning/ social –emotional learning/interactive participated learning)

**12- mavzu. Zamonaviy chet til o'quv jarayonini tashkil etish texnologiyalari, metod va usullari.** Zamonaviy metodlar (Gamed based teaching/teacher centered teaching/kinesthetic learning/inquiry based learning/ discussion based learning/service learning/ play based learning/personalized learning/problem based learning)

**13- mavzu. Zamonaviy chet til o'quv jarayonini tashkil etish texnologiyalari, metod va usullari.** Zamonaviy metodlar (specific teaching method/the programmed instruction method/the study assignment method/tutorial method/the demo method/reciprocal teaching/culturally responsive teaching/interdisciplinary teaching/spaced learning/VAK teaching/ competency based teaching)

**14- mavzu. Darsni rejalashtirish.**
Chet til o'quv jarayonini rejalashtirish. Chet til darsi tavsifi va texnologiyasi: darsda til muhitini yaratish, darsning tarbiyaviy imkoniyatlari, dars maqsadining xususiyati, chet til darsining mazmuni. Darsning maqsad, vazifalarini belgilash va tilga oid nutqiy materialni tanlash va tayyorlash.

**15-mavzu. Chet til darsi tuzilishi va uning bosqichlari**
Chet til darsida o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi shakllari. Mavzuiy reja. Bir soatlik darsni rejalashtirish, darsni kuzatish. Portfolio turlari va tuzilishi. Darsning maqsadi, vazifalari, shakllari, darsga qo'yiladigan talablar, kalendar –tematik rejani tuzish texnologiyasi.

**16-mavzu. Chet tilini o`rganishda talaffuzni o`rgatish**
O'quvchilarga chet til talaffuzini o'rgatish. Talaffuzni o'rgatishda innovatsion ta'lim texnologiyalari.Talaffuzni baholashga qo'yilgan CEFR talablari. Talaffuzga oid o`yinlar va mashqlardan foydalanaish.

**17-mavzu. Leksikani o'rgatishning zamonaviy texnologiyalari**
O'quvchilarga leksikani o'rgatish muammolari. Leksik materialni o'rgatishda innovatsion ta'lim texnologiyalari. Leksikani baholashga qo'yilgan CEFR talablari. So`z ma`nolarini o`rgatish turlari. So`z o`yinlaridan foydalanish.

**18- mavzu. Grammatikani o'rgatishning zamonaviy texnologiyalari**
O'quvchilarga chet til grammatikasini o'rgatish. Grammatik materialini o'rgatishda innovatsion ta'lim texnologiyalari. Grammatikani baholashga qo'yilgan CEFR talablari. Grammatik o`yinlar va mashqlar.

**19-mavzu. Tinglab tushunishni o'rgatishda zamonaviy texnologiyalar.**
Chet tilni amaliy jihatdan egallashda tinglab tushunishning ahamiyati. O'quvchilarga tinglab tushunish o'rgatishning maqsadi va vazifalari. Tinglab tushunishning asosiy mexanizmlari va ularni shakllantirish. Tinglab tushunishni o'rgatish qiyinchiliklari. O'quvchilarga tinglab tushunishni



6. O'qituvchi kasbiy portfoliosini tayyorlash va himoya qilish
7. Chet til o'qituvchisi kasbiy kompetensiyasining turli bosqichlardagi xususiyatlari.
8. Uzluksiz ta'lim tizimi o'quv adabiyotlarining ahamiyati (boshlang'ich, umumiy o'rta ta'lim, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari misolida)
9. Nazorat ishi va uning vazifalari namunalari.
10. Mustaqil ta'limning turli bosqichdagi xususiyatlari (boshlang'ich, umumiy o'rta ta'lim, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari misolida)
11. Chet til ta'limining turli bosqichlarida darsni rejalashtirish (boshlang'ich, umumiy o'rta ta'lim, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari misolida)
12. Chet til darsini AKT asosida rejalashtirish (boshlang'ich, umumiy o'rta ta'lim, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari misolida)
13. Chet tili bo'yicha xorijiy ekespertlar tajribasini o`rganish va tahlil qilish
14. Chet til bo'yicha kommunikativ kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan mashqlar tizimi (boshlang'ich, umumiy o'rta ta'lim, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari misolida)
15. Turli ta'lim bosqichlarida til va nutq materialini yaratishning didaktik asoslari (boshlang'ich, umumiy o'rta ta'lim, akademik litsey va kasb-hunar ollejlari misolida).
16. Kasb-hunar kollejlari o'quvchilari og'zaki nutqini rivojlantirishda ta'lim texnologiyalarining ahamiyati
17. Akademik litsey o'quvchilari dialogik nutqini rivojlantirishda ta'lim texnologiyalarining ahamiyati.
18. Kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining ijtimoiy madaniy kompetensiyasini rivojlantirishda o'yin texnologiyalarining ahamiyati
19. Akademik litsey o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda Case Study texnologiyasining o'rni.
20. Umumta'lim maktabi o'quvchilarining dialogik nutqini rivojlantirishda ta'lim texnologiyalarining ahamiyati. (A1 darajadagi o'quvchilar misolida)
21. Umumta'lim maktabi o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirishda ta'lim texnologiyalarining ahamiyati. (A1 darajadagi o'quvchilar misolida)
22. Umumta'lim maktabi o'quvchilarining dialogik nutqini rivojlantirishda ta'lim texnologiyalarining ahamiyati. (A2 darajadagi o'quvchilar misolida
23. Umumta'lim maktabi o'quvchilarining dialogik nutqini rivojlantirishda ta'lim texnologiyalarining ahamiyati. (A2 darajadagi o'quvchilar misolida
24. Umumta'lim maktabi o'quvchilarining diskurs kompetensiyasini rivojlantirishda ta'lim texnologiyalarining ahamiyati. (A1 darajadagi o'quvchilar misolida

bo'lishi

- ta'lim jarayonida ijtimoiy va pedagogik fanlar integratsiyasining asosiy qonuniyatlarini bilishi va amalda qo'llay olishi;
- chet til darsini an'anaviy va yangi pedagogik texnologiyalardan to'laqonli foydalangan holda olib borishi;
- dars berish jarayonida ta'limning zamonaviy texnik vositalari bilan ishlay olishi;

yangi ilmiy adabiyotlar, darsliklarning elektron ko'rinishlari va ARM kataloglaridan foydalana olish ko'nikmasiga ega bo'lishi zarur

**V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi – o'qituvchining rahbarligi va nazorati ostida muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarishi uchun uning bilim va ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat. Talabaning mustaqil ishini tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

1.Ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyoti yordamida mustaqil o'zlashtirish.
2. Berilgan mavzular bo'yicha portfolio tayyorlash.
3. Nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash.
4. Kundalik dars rejasini tuzish.
5. Ilmiy anjumanlarga ilmiy maqola, ma'ruza tayyorlash.
6. Berilgan mavzular bo'yicha prezentatsiyalar tayyorlash.
7. Kompyuter va on-layn texnologiyalarni qo'llash.
8. O'qituvchi portfoliosini tayyorlash.
9. Mustaqil holda dars jarayonini kuzatish va tahlil qilish.

Talabalar mustaqil ishini tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan uslubiy ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari:

1. Uzluksiz ta'lim tizimida chet til o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Ta'limning turli bosqichlarida o'quv jarayonida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish (boshlang'ich, umumiy o'rta ta'lim, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari misolida)
3. Ta'limning turli bosqichlarida chet tili bo'yicha auditoriya va sinfdan tashqari hamda mustaqil ishlarni tashkil etish (yondashuv, metod va usullar)
4. Ta'limning turli bosqichlari uchun o'qitishning interfaol metodlari (boshlang'ich, umumiy o'rta ta'lim, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari misolida)
5. Turli bosqichlarda loyiha texnologiyalari asosida o'qitish (boshlang'ich, umumiy o'rta ta'lim, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari misolida)



o'rgatishga qo'yilgan CEFR talablari va baholash.

**20-mavzu. Tinglab tushunishni o'rgatishda zamonaviy texnologiyalar (turli darajalarda).** O'quvchilarga tinglab tushunishni o'rgatishning ahamiyati. Tinglab tushunishni o'rgatishning asosiy mexanizmlari va ularni rivojlantirish. Turli darajadgi o'quvchilariga tinglab tushunishni o'rgatishning "Top down" va "Bottom up"usullari. AKT yordamida tinglab tushunishni o'rgatish. O'quvchilarga tushunishni o'rgatishga qo'yilgan CEFR talablari va baholash.

**21-mavzu. Chet tilida gapirishni o'rgatishda zamonaviy texnologiyalar.** Gapirish – ta'limning maqsadi va vositasi sifatida. Gapirishning turlari, asosiy mexanizmlari, ularni shakllantirish hamda rivojlantirish usullari. O'quvchilarning gapirishni o'rgatishning qiyinchiliklari. Gapirishni shakllantirishda mashqlar tizimi. Gaprishni o'rgatishda o'yin texnologiyalarini qo'llash. O'quvchilarga gapirishni o'rgatishga qo'yilgan CEFR talablari va baholash.

**22- mavzu. Chet tilida gapirishni o'rgatishda zamonaviy texnologiyalar** Nutq turlari va ularni rivojlantirish. Kommunikative kompetensiyalarni rivojlantirish. Gapirishni rivojlantirishda qo`llanadigan asosiy methodlar. Gapirishni shakllantirishda mashqlar tizimi. Gapirishni o'rgatishda interfaol texnologiyalardan foydalanish. O'quvchilarga gapirishni o'rgatishga qo'yilgan CEFR talablari va baholash.

**23-mavzu. Chet tilida gapirishni o'rgatishda zamonaviy texnologiyalar (turli darajalarda).** Gapirishning turlari, asosiy mexanizmlari, ularni shakllantirish hamdarivojlantirish usullari. O'quvchilarga gapirishni o'rgatishning qiyinchiliklari. Gapirishni shakllantirishda mashqlar tizimi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi.

**24- mavzu. Chet tilida o'qishni o'rgatishda zamonaviy texnologiyalar** O'qish - chet til o'qitishning maqsad va vositasi sifatida. O'qishni o'rgatish bosqichlari. O'qish turlari va ularni shakllantirishga mo'ljallangan mashqlar tizimi. Nazorati turlari va shakllari. O'qitishni o'rgatishda grafik organayzerlarning ahamiyati. O'quvchilarning o'qish malakasiga qo'yilgan CEFR talablari va baholash.

**25- mavzu. Chet tilida o`qishni o'rgatishda zamonaviy texnologiyalar** (turli darajalarda) O'qishni o'rgatish texnologiyalari. O'qishni rivojlantirishda

matnlarning turliligi va qo`llanish uslublari. Top- down/bbottom up strategiyalari. Matn bilan ishlash turlari. Autentik matnlardan foydalanish qoidalari.

**26-mavzu. Chet tilida yozishni o'rgatishda zamonaviy texnologiyalar.** Yozuvni o'rgatishning maqsad va vazifalari. Yozma nutqni o'rgatish texnologiyasi. Ta'limning turli bosqichlarida yozuv, orfografiya (to'g'ri yozish) ko'nikmalariga va yozma nutq malakasiga ega bo'lishga qo'yilgan CEFR talablari va baholash

**27-mavzu. Yozuvni o'rgatishda zamonaviy texnologiyalar (turli darajalarda)**
Yozuvni o'rgatishda yozuv matnlari (xatlar, insho/bayon/diktant/rasmiy hujjatlar/posterlar/broshyuralar/reklamalar/receptlar/kundalik/portfolio/sharh/konspekt olish/hisobot) shakllaridan foydalanish va amalda qo`llash. Yozma nutq malakasiga ega bo'lishga qo'yilgan CEFR talablari va baholash

**28-mavzu. Chet tilni o'rgatishda nazorat va test turlari**
Chet til bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilishda CEFR talablari. Chet til bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish turlari, shakllari. Test turlari.

**29-mavzu. Kredit modul tizimida talaba mustaqil ishlarini shakllantirish va baholash.**
Chet til bo'yicha darsdan tashqari ishning ahamiyati. Chet til bo'yicha darsdan tashqari ishlarning turlari va shakllari. Chet til darsi bo'yicha darsdan tashqari ishlarni tashkillashtirish va rejalashtirish tamoyillari. Ta'limning turli bosqichlarida chet til bo'yicha darsdan tashqari ishlarni tayyorlash va o'tkazish texnologiyalari. Kredit modul tizimida tahsil olayotgan talabalarning mustaqil ishlarini tashkillashtirish va ularni baholash turlari.

**30- mavzu.Chet tilini o`rgatishda o`qitish va o`rganish muammolari/yechimlari**
Chet tilini o`rgatishda muammolar va ularning yechimlari. Chet tili o`rganishda o`rganuvchilar muammolari va to`siqlar.

**IV. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**
Seminar mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Chet tilini o`rgatishni ommalashtirishda qabul qilingan chora tadbirlar
2. Chet tillarni o'qitish metodikasining qisqacha tarixi va uning rivojlanish bosqichlari.
3. Chet tillarni o'qitish texnologiyalari
4. Chet tillarni o'qitishda darsga tayyorgarlik
5. Til o`rganish uslublari
6. Uzluksiz ta'lim tizimida chet til o'qituvchisi bilan o`rganuvchi o`rtasida muloqot. Diagnostik testlar
7. Zamonaviy chet til o'quv jarayonini tashkil etish texnologiyalari, metod va usullari.
8. An`anaviy metodlar bilan zamonaviy metodlarni taqqoslab o`rganish
9. Chet til darslarida motivatsiyani oshiruvchi o`yinlar.
10. O`qituvchi kompetensiyasini yahshilash
11. O`yinlar asosida dars o`tish
12. Loyihali ish asosida dars o`tish
13. VAK metodi va uning qo`llanishi
14. Darsni rejalashtirish. Dars etaplari, uni shakllantirish va materiallar
15. O`zaro dars o`tish (Peer teaching)/ va tahlil qilish
16. Talaffuzni o'rgatish texnologiyalari.
17. Leksikani o'rgatish texnologiyalari.
18. Grammatikani o'rgatish texnologiyalari. (Barcha darajalarda)
19. Tinglab tushunishni o`rgatish.
20. Tinglab tushunishni o`rgatish. (Barcha darajalarda)
21. Chet tilida gapirishni o`rgatish
22. Chet tilida gapirishni o`rgatish (Turli darajalarda)
23. Chet tilida o`qishni o'rgatishda zamonaviy texnologiyalar
24. Chet tilida o`qishni o'rgatishda zamonaviy texnologiyalar (turli darajalarda)
25. Chet tilida yozishni o'rgatish
26. Chet tilida yozishni o'rgatishda (turli darajalarda)
27. Chet tili o`rganishda o`rganuvchilar bilimini baxolash turlari
28. Chet tili o`rganishda testlardan foydalanish
29. Darsdan tashqari ishlarini tashkillashtirish
30. Mustaqil ishlarni tashkillashtirish

**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**
**Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:**

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi: "Chet tillar o`qitish metodikasi" fanini o'zlashtirish jarayonida bakalavr talabasi:

- pedagogik mohiyatning manbai, pedagogika tarixining asosiy bosqichlari, ushbu sohadagi yangi ilmiy yutuqlar borasida tasavvurga ega bo'lishi
- yoshga doir psixologiyaning o'ziga xos xususiyatlari va uning gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi bilan aloqasi borasida tasavvurga ega